

**Navoiy shahar hokimligida ijro intizomini mustahkamlash, qonunchilik
hujjatlari va topshiriqlari ijrosi bo'yicha
2026 yilning 1-yarim yilligida amalga oshirilgan
ishlar to'g'risida ma'lumot**

2026-yilning o'tgan **6 oyi** davomida jami **80 ta** qonunchilik hujjatlari orqali **327 ta** topshiriqlar kelib tushgan bo'lib, ushbu topshiriqlarning **291 tasi** Prezident hujjatlaridagi, **36 tasi** Vazirlar Mahkamasi qarorlaridagi topshiriqlar hisoblanadi.

Mazkur topshiriqlar bo'yicha nazorat rejalari ishlab chiqilib, tegishli tartibda ijroga qaratilgan.

Shahar hokimligida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarining ijro holati hamda ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha har haftaning dushanba kuni hokim huzurida va juma kuni birinchi o'rinbosar huzurida muhokama qilinib kelinmoqda.

Bundan tashqari, har oyning 25-sanasiga qadar kelgusi oyda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar to'g'risida birinchi rahbar xabardor qilinib, ijro muddatlari keyingi oyda keladigan topshiriqlar shahar hokimligi tarkibiy bo'linmalari kesimida shakllantirilib, eslatma xat shaklida barcha mas'ullarga muntazam yetkazib kelinmoqda.

Shu bilan bir qatorda 2026-yilning o'tgan davrida qonunchilik hujjatlari ijrosini ta'minlashda mas'uliyatsizlikka yo'l qo'ygan, ijro intizomi talablariga rioya qilmaganligi uchun **4** nafar hokim o'rinbosari, **1** nafar hokimlik mas'ul xodimi, **1** nafar tashkilot rahbari va **24** nafar hokim yordamchilariga nisbatan turli darajadagi intizomiy jazo choralari qo'llanilgan bo'lsa, **1** nafar tashkilot rahbari lavozimidan ozod etildi.

Bundan tashqari, shahar hududidagi boshqa korxona va tashkilot rahbarlariga intizomiy jazo chorasi qo'llash maqsadida ularning yuqori turuvchi tashkilotlariga **10** dan ortiq turli darajadagi taqdimnomalar kiritildi.